SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Son 1/S. Jild 4.

2024

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ S/1 (4) - 2024***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2024**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймахамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалохонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна - педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Карамаддиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

*Fayziyev O'rinboy Toshmuhammad o'g'li*
OʻZBEKISTONDA ALOHIDA TAʻLIM EHTIYOJIGA EGA BOʻLGAN INSONLARNI IJTIMOIY HIMOYALASH SOHASIDAGI ISLOHOTLAR ........ 9-16

*Эсонов Зиёдбек Юлдашевич*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ МИНГ ЎЗБЕК УРУҒИ МАНБАЛАРИ ТАРИХИДАН ........ 17-22

*Rajapov Mardonbek Qosimboy oʻgʻli*
AFRIG'IYLAR SULOLASI TARIXINING TURK TILLI TADQIQOTLARDA YORITILISHI ........ 23-26

*Исмоилова Нигорахон Усмонжановна*
НАЛИВКИН И ЕГО СВЕДЕНИЯ О ТУЗЕМНОЙ ЖЕНЩИНЕ ........ 27-34

*Мирхакимова Феруза Холдоржон кизи*
ВЗГЛЯД В ИСТОРИЮ МЕМОРИАЛЬНОГО МУЗЕЯ САДРИДДИН АЙНИ ........ 35-40

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Zhao Rong*
RESEARCH ON THE CONSTRUCTION OF CORE CURRICULUM STANDARDS FOR CROSS-BORDER E-COMMERCE MAJORS BASED ON HIGHER VOCATIONAL EDUCATION IN INNER MONGOLIA ........ 41-48

*Husanboyev Sadafbek Yorqinjon oʻgʻli*
FARGʻONA VILOYATIDA AGROTURIZM FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA RESURS SALOHIYATINI BAHOLASH ........ 49-58

*Malikova Gulhayo Turdali qizi*
TIJORAT BANKLARDA INVESTITSION FAOLIYAT TAHLILI ........ 59-64

*Maxmudov Anvarjon*
SOLIQ HUQUQBUZARLIKLARINI TARKIBI, SHAKLLANISH MANBALARI VA ULARNI IQTISODIY MOHIYATI ........ 65-75

*Мухитдинов Ахрор*
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТДА ЯГОНА МАРКАЗЛАШГАН ДИСПЕТЧЕРЛИК ХИЗМАТИНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ ........ 76-82

*Jurayev Xusan Atamuratovich*
KORXONANI MOLIYAVIY SOG'LOMLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 83-89

*Butunov Shaymardan Berdiyarovich*
NOANIQLIK ORQALI HARAKAT QILISH: IQTISODIY BEQARORLIK SHAROITIDA MOLIYAVIY TAHLIL ........ 90-96

*Islomova Mohlaroyim Inomjon qizi, Ortiqova So'g'diyona Abdusodiq qizi, Abdurahimova Zulhumor Azimjon qizi*
TURIZM XIZMATLAR SOHASIDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARNI QO'LLASH ........ 97-103

*Содиқов Анвар*
ЎЗБЕКИСТОН ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ КЎП ОМИЛЛИ ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАР АСОСИДА БАҲОЛАШ ВА МУҚОБИЛ СЦЕНАРИЙЛАРИНИ АНИҚЛАШ... 104-116

*Norov Asror Egamberdiyevich, Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich*
O‘ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO‘LGA QO‘YILGAN OLIY TA’LIM VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARI ........ 117-122

## *09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*

*Эшонкулова Нуржахон Абдужабборовна*
ГЛОБАЛЛАШУВ ШАРОИТЛАРИДА ТАЪЛИМ ТИЗИМИ ТРАНСФОРМАЦИЯСИ: ИЖТИМОИЙ-ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛ ........ 123-130

*Khalilova Shakhlo Abdurashitovna*
IBN SINA AND HIS CONTRIBUTION TO SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION: RETHINKING THE HERITAGE OF EASTERN THINKERS ........ 131-136

## *10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ*

*Saidov Hakim G‘ofurovich*
VATANPARVARLIK VA MILLIY G‘URURNING FALSAFIY KATEGORIAL NEGIZLARI ....... 137-141

*Jabborov Jamshid Azimovich*
MA’NAVIY EHTIYOJLAR JAMIYAT MA’NAVIY HAYOTINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA ........ 142-148

*Соатов Ғайрат*
БАЙРАМЛАР – МИЛЛАТНИНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТИ ........ 149-156

*Raxmatova Xolidaxon Xolikovna*
NAQSHBANDIYLAR EHTIROMIGA SAZOVOR BUYUK ZOT ........ 157-161

*Wang XiaoYu*
AN ANALYSIS OF THE MYTHICAL PATTERNS IN ULYSSES FROM THE PERSPECTIVE OF ARCHETYPE THEORY ........ 162-170

*Mamadkulova Kamila Abdukhalikovna*
FEATURES OF 19th CENTURY LITERATURE: ROMANTICISM AND REALISM ........ 171-175

*Aripova Saodat Taxirovna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI ........ 176-181

*Xudoyqulov Behzod Abbosovich*
ITALYAN TILIDAGI FRAZEOLOGIK IBORALAR TARJIMASI VA ULARNING O’ZBEK TILIDAGI EKVIVALENTLARI ........ 182-187

*Mavlonova Gulnora Abdig’ani qizi*
ADABIYOTDA QO’LLANILGAN EVFEMIZMLAR (ROMAN VA SHE'RIYAT) MISOLLAR BILAN ........ 188-192

*Tuxtayeva Dildora Zokirovna, Izzatilloyeva Sevinch Nusratilloyevna*
INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA “YAXSHILIK” KONSEPTINI IFODALOVCHI MAQOLLARNING MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI ........ 193-197

*Djurayeva Orzigul Gafurovna*
QAXXOR BAXSHI RAHIMOV IJODINING O‘RGANILISHI ........ 198-204

*Gafarova Shahnoza Hayrullayevna*
TIL VA TA’LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ........ 205-209

## 12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

*Исломқулова Шоҳсанам Ваҳобжон қизи*
ВРАЧНИНГ КАСБИЙ ЖАВОБГАРЛИГИНИ СУҒУРТА ҚИЛИШНИ ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ ОМИЛЛАРИ ВА ЗАРУРИЯТИ ........ 210-215

*Sarvinoz Sunnatillaeva*
PROCEDURAL CHALLENGES IN THE REGULATION OF ABUSE OF DOMINANT POSITION IN UZBEKISTAN ........ 216-222

## 13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

*Soliyev Ibodulloxon Ismatullayevich*
FACTORS AFFECTING THE EFFICIENCY OF REFORMS IN THE MANAGEMENT SYSTEM OF HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS ........ 223-233

*Shokirov Po'lat*
TALABALARGA ATLETIK GIMNASTIKA MASHG'ULOTLARINI JOZIBADORLIGINI OSHIRISHING USLUBIY ASOSLARI ........ 234-238

*Begmatova Dilnoza Muxtarovna*
JAHON MIQYOSDA TA'LIM JARAYONI SUBYEKTLARIDA MADANIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISH TENDENSIYALARI ........ 239-243

*To'rayev Panji To'xtayevich*
MILLIY KURASH MASHG'ULOTLARIDA UMUMIY JISMONIY TAYYORGARLIKNI TASHKIL ETISH VA SHAKLLANTIRISH ........ 244-248

*Axmedova Nafisa Isaxodjayevna, Azamatov Abdullo Isaxo'ja o'g'li, Lutfullina Rumiya Anvarovna*
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAKULTETLARI TALABALARI UCHUN ANTIDOPING QOIDABUZARLIKLARINING OLDINI OLISH MEXANIZMINI YARATISH ........ 249-256

*Egamberdiyev Javlonbek*
TA'LIM MUASASSALARIDA MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARNI TASHKIL QILISH VA UNING ILMIY-USLUBIY ASOSLARI ........ 257-260

*Kenjaboev Abdisalim Erkaboevich*
ZAMONAVIY TA'LIM- TARBIYA JARAYONIDA PEDAGOGIK RAHBARNING KOMPETENTLIGI ........ 261-265

SCIENCE PROBLEMS.UZ

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. -№ S/1(4) - 2024
ISSN: 2181-1342 (Online)
https://scienceproblems.uz

**Norov Asror Egamberdiyevich**
Innovatsion rivojlanish agentligi
direktori maslahatchisi, i.f.d. (DSc),
E-mail: norovasror1@gmail.com

**Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich**
Kadrlar malakasini oshirish va
statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: fshshohruh@gmail.com

## O‘ZBEKISTONDA DOKTORANTURA FAOLIYATI YO‘LGA QO‘YILGAN OLIY TA’LIM VA ILMIY TADQIQOT MUASSASALARI

**Annotatsiya.** O‘zbekistonda doktorlik faoliyatini rivojlantirishda universitetlar va ilmiy tadqiqot muassasalari muhim rol o‘ynaydi. Doktorlik faoliyati — bu yangi bilimlarni olish va ularni amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot va o‘quv vazifalari majmuasidir. Oliy o‘quv yurtlari va ilmiy tadqiqot muassasalari yuqori malakali ilmiy kadrlar tayyorlash uchun shart-sharoit yaratadi, fan sohalari rivojiga ko‘maklashadi, fan va ta’lim integratsiyasini ta’minlaydi. Doktorlik ishining asosiy elementlaridan biri tadqiqot ishi hisoblanadi. Universitetlar va ilmiy tadqiqot muassasalari bilimning turli sohalarida fundamental va amaliy tadqiqotlar olib boradi, yangi texnologiyalar, uslub va yondashuvlarni ishlab chiqish uchun zamin yaratadi. Bu esa mamlakat ilmiy salohiyatini yuksaltirish va jahon ilmiy hamjamiyatiga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Mamlakatimizda hududlar kesimida doktorantura faoliyati yo‘lga qo‘yilgan oliy ta’lim va ilmiy tadqiqot muassasalarining holati va u yerda tadqiqot olib borayotgan izlanuvchilarning soni, jinsi va yoshiga nisbatan tahlil qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Ilmiy darajali kadrlar, muammolar, oliy ta’lim muassasalari, ilmiy tadqiqot muassasalari, doktorantura, hududlar, tadqiqotchilar, tahlil, rivojlanish, tadqiqot, tayanch doktorantura, tadqiqotchilarning o‘rtacha yoshi.

**Norov Asror Egamberdiyevich**
Directorate of Innovation Development
Senior Consultant, DSc.

**Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich**
Independent Researcher at the Institute for
Personnel Development and Statistical Research

## ACTIVITY OF DOCTORAL STUDIES ESTABLISHED IN HIGHER EDUCATION AND RESEARCH INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

**Abstract.** In Uzbekistan, universities and research institutions play a crucial role in advancing doctoral activities. Doctoral activity involves a collection of scientific research and educational tasks aimed at acquiring new knowledge and applying it in practice. Higher education institutions and research institutions create conditions for training highly qualified scientific personnel, contribute to the development of academic fields, and ensure the integration of science and education. Research work is considered one of the essential elements of doctoral work. Universities and research institutions conduct fundamental and applied research in various fields, create a basis for developing new technologies, methods, and approaches. This contributes to enhancing the country's scientific potential and integrating it into the global scientific community. The situation of doctoral

education and research conducted in regional educational and scientific institutions in our country, as well as the number, gender, and age distribution of researchers engaged in research there, is analyzed.
**Keywords:** Academic personnel, challenges, higher education institutions, research institutions, doctoral studies, regions, researchers, analysis, development, research, prospective doctoral studies, average age of researchers.

**Норов Асрор Эгамбердиевич**
Агентство Инновационного Развития
Советник директора, (Доктор экономических наук),

**Фазлиддинов Шохрух Шамсиддинович**
Независимый исследователь Института
по развитию кадров и статистических исследований

# ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОКТОРАНТУРЫ, УЧРЕЖДЕННОЙ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ И НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКИХ УЧРЕЖДЕНИЯХ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Аннотация.** В Узбекистане университеты и научно-исследовательские учреждения играют важную роль в развитии докторантуры. Докторантура представляет собой совокупность научно-исследовательских и образовательных задач, направленных на получение новых знаний и их практическое применение. Высшие учебные заведения и научно-исследовательские учреждения создают условия для подготовки высококвалифицированных научных кадров, способствуют развитию академических областей и обеспечивают интеграцию науки и образования. Исследовательская работа является одним из основных элементов докторантуры. Университеты и научно-исследовательские учреждения проводят фундаментальные и прикладные исследования в различных областях, создают основу для разработки новых технологий, методов и подходов. Это способствует укреплению научного потенциала страны и его интеграции в мировое научное сообщество. Анализируется состояние деятельности докторантуры и исследований, проводимых в региональных образовательных и научных учреждениях нашей страны, а также количество, пол и возраст исследователей, занимающихся исследованиями.
**Ключевые слова:** Научные кадры, проблемы, высшие учебные заведения, научно-исследовательские учреждения, докторантура, регионы, исследователи, анализ, развитие, исследование, перспективная докторантура, средний возраст исследователей.

DOI: https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI1Y2024N15

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” PF-4958-son Farmonlariga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasida uzluksiz taʼlimning noyob tizimi yaratildi, ilmiy-tadqiqot faoliyati, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash va attestatsiyadan oʻtkazish samaradorligini oshirishga, mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotida ilm-fanning rolini kuchaytirishga yoʻnaltirilgan salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda.

Doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish olim hayoti va faoliyatidagi eng muhim bosqichlaridan biridir. Bu jarayon tadqiqotchidan oʻz sohasi boʻyicha chuqur bilimni emas, balki tashkilotchilik qobiliyatini, matonat va sabr-toqatni ham talab qiladi. Doktorlik dissertatsiyasi olimning maʼlum bir bilim sohasida olib borgan koʻp yillik izlanishlari natijasidir. Unda muallif muammoni tushunganligini koʻrsatishi, yangi ilmiy natijalarni taqdim etishi va oʻzining ilmiy farazlarini ilgari surishi kerak. Doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash katta hajmdagi maʼlumotlarni tizimlashtirish, mavjud ilmiy nazariya va metodlarni tahlil qilish, oʻz tadqiqot va tajribalarini oʻtkazishni talab qiladi. Biroq, dissertatsiyani yozish jarayonining oʻzi ishning faqat birinchi qismidir. Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish yakuniy bosqich boʻlib,

unda muallif o‘z ilmiy natijalarini ekspert komissiyasiga taqdim etishi shart. Dissertatsiyani himoya qilish nafaqat materialni ishonchli taqdim etishni, balki o‘z tadqiqotini chuqur tushunishni, shuningdek, opponentlarning savollariga javob berish qobiliyatini ham talab qiladi.

Doktorlik dissertatsiyasini himoya qilish jiddiy tayyorgarlikni talab qiladi. Muallif nafaqat ilmiy natijalarini ishonchli tarzda taqdim etishi, balki o‘z ishini mutaxassislar tomonidan tanqidiy tahlil qilishga tayyor bo‘lishi kerak. Shuning uchun nafaqat o‘z sohangiz bo‘yicha chuqur bilimga ega bo‘lish, ilmiy pozitsiyangizni himoya qilish va raqiblar bilan muloqotga tayyor bo‘lish ham muhim hisoblanadi. Shunday qilib, doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish har bir olim hayotidagi qiyin, ammo muhim bosqichdir. Bu nafaqat ilmiy yutuqlaringizni namoyish etish, balki hamkasblar va mutaxassislarning fikr-mulohazalarini olish imkoniyatidir, bu esa tadqiqot sifatini oshirish va ilm-fan rivojiga hissa qo‘shish imkonini beradi.

Mamlakatimizda doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o‘rganishni va ilmiy izlanishlar olib borish uchun oliy ta’limdan keyingi ta’limda hozirgi kunda doktoranturaning barcha turlari bo‘yicha jami 8809 nafar tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib bormoqda.

Hozirgi kunda (2023-yil III chorak holatida) 117 ta oliy ta’lim muassasasi va 107 ta ilmiy tashkilotlarda (jami 224 ta) doktorantura faoliyati yo‘lga qo‘yilgan (1-rasm).




**1-rasm. Doktorantura faoliyati yo‘lga qo‘yilgan oliy ta’lim muassasalari** *(hududlar kesimida)*[1]

Yuqoridagi diagrammada ko‘rib turganimizdek eng ko‘p doktorantura faoliyati yo‘lga qo‘yilgan oliy ta’lim muassasalari Toshkent shahrida joylashgan bo‘lib 52 tani tashkil qiladi. Andijonda 7 ta, Buxoroda 5 ta, Farg‘onada 8 ta, Jizzaxda 3 ta, Namanganda 4 ta, Navoiyda 1 ta, Qashqadaryoda 4 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 6 ta, Samarqandda 10 ta, Sirdaryoda 2 ta, Surxondaryoda 5 ta, Toshkent viloyatida 7 ta Xorazmda 3 ta oliy ta’lim muassasasida doktorantlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan (2-rasm).

[1] Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.




**2-rasm. Doktorantura faoliyati yo‘lga qo‘yilgan ilmiy tadqiqot muassasalari** *(hududlar kesimida)*[1]

Yuqoridagi diagrammada ham ko‘rishimiz mumkinki eng ko‘p 88 ta ilmiy tadqiqot muassasasi joylashgan hudud Toshkent shahri hisoblanadi.

Andijonda 1 ta, Jizzaxda 2 ta, Navoiyda 1 ta, Qashqadaryoda 2 ta, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 2 ta, Samarqandda 2 ta, Toshkentda 7 ta, Xorazmda 2 ta ilmiy tadqiqot muassasasida doktorantlar faoliyati yo‘lga qo‘yilgan. Respublikamizning Buxoro, Farg‘ona, Namangan, Sirdaryo, Surxondaryo viloyatlarida joylashgan ilmiy tadqiqot muassasalarida doktorantura faoliyati yo‘lga qo‘yilmagan.

Oliy ta’limdan keyingi ta’limda doktoranturada 269 nafar, maqsadli doktoranturada 13 nafar, tayanch doktoranturada 3702 nafar, maqsadli tayanch doktoranturada 217 nafar, mustaqil tadqiqotchilikka 828 nafar, stajor-tadqiqotchilikka 527 nafar, jami bo‘lib 5686 nafar ilmiy tadqiqotchilar izlanishlar olib bormoqdalar (2023-yil III chorak holatida) (1-jadval).

**1-jadval**

**Oliy ta’limdan keyingi ta’limda doktoranturaning turlari bo‘yicha tahsil olayotganlar soni.**[2]

| Oliy ta’limdan keyingi ta’lim turi | 2022-yil | 2023-yil *(III chorak holatida)* |
|---|---|---|
| Doktorantura DSc | 422 | 269 |
| Maqsadli doktorantura DSc | 9 | 13 |
| Mustaqil tadqiqotchi, DSc | - | 130 |
| Tayanch doktorantura PhD | 5204 | 3702 |
| Maqsadli tayanch doktorantura PhD | 225 | 217 |

[1] Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
[2] Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

| | | |
|---|---|---|
| Mustaqil tadqiqotchi PhD | 2525 | 828 |
| Stajor-tadqiqotchi | 424 | 527 |
| **Jami:** | **8809** | **5686** |

2022-yil hisobidan kurslar kesimida oladigan boʻlsak birinchi kursda 5029 nafar, ikkinchi kursda 2148 nafar, uchinchi kursda 1632 nafar ilmiy tadqiqotchilar faoliyat olib borgan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida 5686 nafar ilmiy faoliyat bilan shugʻullanayotganlar orasida eng koʻpi ham yosh jihatidan kattalari ham erkaklar ekanligi aniqlandi.

Izlanishlar davomida ilmiy tadqiqot olib boruvchilarni oʻrtacha yosh kesimida ham oʻrganib chiqildi, natija quyidagicha (3-rasm).




**3-rasm. Oliy ta’limdan keyingi ta’limda doktoranturaning turlari boʻyicha tahsil olayotgan erkak va ayollarning oʻrtacha yoshi.**[1]

Oʻrganishlarimiz natijasi shuni koʻrsatadiki 2022-yilgi tadqiqotchilar orasida erkaklar 5156 nafar, ayollar 3646 nafar ekanligi aniqlandi. Foiz hisobida oladigan boʻlsak ayollar 29 foizni, erkaklar esa 71 foizni tashkil qildi (2-jadval).

[1] Innovatsion rivojlanish agentligi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.

**2-jadval**

**Tadqiqotchilarning soni** *(2022-2023 yillar kesimida)*

| № | Jinsi | 2022-yil | 2023-yil III chorak holatida |
|---|---|---|---|
| **1.** | Ayollar | 3646 | 2811 |
| **2.** | Erkaklar | 5156 | 2875 |
| **Jami:** | | **8802** | **5686** |

Xulosa oʻrnida aytadigan boʻlsak, taʼlim va fan rivojida doktoranturani taklif etuvchi oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalari muhim oʻrin tutadi. Mazkur muassasalarda talabalar nafaqat oliy maʼlumot olish, balki ilmiy-tadqiqot ishlarida ishtirok etish, oʻz ilmiy izlanishlarini olib borish va ilmiy bilimlar rivojiga hissa qoʻshish uchun noyob imkoniyatga ega.

Bunday muassasalarni hududlarda kengaytirish orqali doktoranturada oʻqish talabalarga oʻzlari tanlagan fan sohasini chuqur oʻrganish, ilmiy koʻnikmalarni shakllantirish, ilmiy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi. Doktorantura dasturlari har bir izlanuvchiga tegishli tadqiqot sohasini topishga imkon beruvchi keng doiradagi yoʻnalishlar va mutaxassisliklarni taklif etadi. Oliy taʼlim va ilmiy-tadqiqot muassasalari talabalari oʻz sohasining yetakchi mutaxassislari bilan hamkorlik qilish, xalqaro ilmiy loyihalarda ishtirok etish, konferensiya va seminarlarda qatnashish imkoniyatiga ega. Bu ularga qimmatli tajriba va bilim orttirish, kasbiy aloqalarini kengaytirish va jahon ilmiy hamjamiyatining bir qismiga aylanish imkonini beradi. Shunday qilib, doktorantura dasturlarini taklif qiladigan oliy taʼlim va ilmiy muassasalari talabalarga kasbiy va shaxsiy rivojlanish, shuningdek, ilmiy bilim va koʻnikmalarni oshirish uchun noyob imkoniyatlarni taqdim etadi. Shu boisdan respublikamiz hududlarida doktorantura faoliyati tashkil etiladigan oliy taʼlim va ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini keng yoʻlga qoʻyish va u orqali ilmlarni faqat bir joyga yigʻilishini yaʼni faqat poytaxtga toʻplanishini kamayadi va mamlakat boʻylab bir tekisda ilm-fanni rivojlanishiga zamin yaratiladi.

**Адабиётлар/Литература/References:**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi “Oliy oʻquv yurtidan keyingi taʼlim tizimini yanada takomillashtirish toʻgʻrisida” PF-4958-son Farmoni;
2. Oliy taʼlim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi maʼlumotlari;
3. https://innovation.gov.uz/;
4. https://lex.uz;
5. https://stat.uz/uz/;
6. https://www.edu.uz.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SPR1342V4SI1Y2024

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/1 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари”** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).